

Ustrushona aholisi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini dafn an'analari asosida o'rganish natijalari

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

Tugalov Boburjon Baxodir o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ustrushona aholisi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini dafn an'analari asosida o'rganish natijalari haqida ma'lumot berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Ustrushona, G'ulbo, Berkarra mozorqo'rg'onlari "Jeti-Osor", "O'tror-Qoratog'" va "Qovunchi" madaniyatlari, Qaliyatepa.

O'rta Osiyo aholisining ijtimoiy hayoti masalasida qariyb ikki asrdan buyon qator tadqiqotchilar tomonidan turli xil fikrlar aytilgan bo'lsada, hanuz ushbu masalada yagona ilmiy fikrga kelinmagan. Uning bosh sababi, qadimgi aholi tarixini o'rganishda asosiy e'tiborni o'troq vohalardagi shahar madaniyatiga oid yodgorliklarni tadqiq qilishga qaratilib, uning tegrasida yoki dashtliklarda joylashgan qabr inshootlariga kam e'tibor qaratilayotganligidir. Keyingi paytda Ustrushonada bu masalaga katta e'tibor qaratilmoqda. Qabrga dafn buyumlarining turlicha (ko'p yoki kam) qo'yilishi esa qadimgi aholi ijtimoiy hayoti va jamiyat tuzilishi haqida tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Ustrushona yodgorliklarida olib borilgan arxeologik qazishmalar aholining turmush tarzini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Yodgorliklar qatlamlarida o'rganilgan me'morchilik qoldiqlari, uy joy va yashash tarzi bilan bog'liq manbalar, qabr inshootlarida aniqlangan kulollik idishlari (qozon, ko'za, xurmacha, xumcha kosa, tog'ora, qo'ra va b.) metalldan yasalgan buyumlar, jang va va ish qurollari – xanjar, pichoq, qilich, kamon o'klarining uchlari va boshqalar qadimgi aholi ijtimoiy hayotini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ulanuvchi ustrushonaliklarda ilk temir davrining so'nggi bosqichlari va antik davrlarga kelib ijtimoiy jarayonlar

kuchayib boradi. Buni vohada vujudga kelgan yodgorliklar markaziy mudofaa tizimining mustahkamlanishi, sun'iy suv inshootlarining qurilishi va boshqalarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu mavzuda arxeolog M.H. Pardayevning ta'kidlashicha, "ilk antik davrda Ustrushonada aholining shaharlashuvi, demografik o'sish jarayonlari natijasida, yangi shaharlarning paydo bo'lishi mamlakatning shimoliy, shimoliy-g'arbiy qismida – Zominsuv va Sangzor daryolari havzasida izchil suratda amalga oshgan. Mil. avv. IV-III, II-I asrlarda eski Xovos, O'rdatepa, Qaliyatepa, Oydinsoytepa, Qo'rg'ontepa shahar yodgorliklari vujudga kelgan".[1] Bu paytda nafaqat, Sangzor yoki Zominsuv kabi vohalar balki, dehqonchilik uchun sharoit mavjud bo'lgan mikrovohalarda ham aholining yanada gavjumlashuvi, yangi yerlarning jadal o'zlashtirilishi va bu erlarda mustahkamlangan jamoa manzilgohlari – qishloq makonlari soni tezlik bilan ko'payib borgan. Eramiz boshlariga kelib, ijtimoiy munosabatlar shakllanishi jadallashganligini nafaqat, Ustrushonada o'rganilgan mozorqo'rg'onlar ashyolari, balki, Qal'ai-Qahkaxa, Qaliyatepa, Xovos, O'rdatepa, Oydinsoytepa, Qo'rg'ontepa va boshqalarda o'rganilgan markazlashgan mustahkam harbiy mudofaa tizimlari, muhtasham ma'muriy inshootlar qoldiqlari va boshqa ko'plab topilmalar ham tasdiqlaydi. Shu bilan birgalikda, Ustrushonada yirik, irrigatsiya inshootlari tizimining shu paytgacha aniqlanmaganligi va katta hajmdagi maydonlarda qishloq xo'jaligi ekinzorlarining bo'lmaganligi kabilar antik davrda siyosiy hokimiyatning hali to'liq shakllanmaganligini ko'rsatadi.[2] Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar haqida so'z ketganda, Ustrushonada antik va ilk o'rta asrlar davrida o'ziga xos yuksalish qayd etiladi. Bu davrda aholi sonining ortishi (demografik o'sish) ishlab chiqarishga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida ijtimoiy rivojlanishga turtki bo'ladi. Mehnat taqsimotidagi aniqlik, ya'ni, ma'lum sohalarga bo'linish zamon ruhidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishda yangiliklarni joriy qilish esa iqtisodiy o'sishga olib keladi. Bunda aholi o'z kasbi, hunari yoki ma'lum belgilangan vazifalarini bajaradi va dehqonchilik vohalarida o'ziga xos ishlab chiqarish turlari shakllanadi. Qadimgi Ustrushona chorvador aholisining ijtimoiy

hayoti va turmush tarzini o'rganishga bag'ishlangan izlanishlar asosan mozorqo'rg'onlarni qazish orqali qo'lga kiritilgan arxeologik manbalar asosida talqin qilingan.[3] Ustrushonada dehqonchilikning har xil turlari yaylov chorvachiligida etakchi mavqe egallagan. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi yarim o'troq aholi xo'jaligida esa chorvachilik katta ahamiyatga ega bo'lgan.[4] Chorvadorlar qishda dasht va cho'l mintaqasida, yozda esa, Turkiston tog'larining alp (yaylov) o'tloqlarigacha bo'lgan masofalardan mavsumiy tarzda almashlab foydalanishgan. Tog'oldi hududlari sug'orma va lalmi dehqonchilik uchun qulay bo'lib, bu erda qishga ozuqa to'plab, uy chorvachiligini ham rivojlantirish mumkin bo'lgan. Ustrushona yodgorliklarida o'rganilgan boy ashyoviy manbalar hududda yashagan etnik guruhlarining ijtimoiy tarkibi haqidagi ma'lumotlarni yanada boyitadi. Masalan, G'ulbodagi qabrlarning asosiy qismida marhumlar yoniga buyumlar qo'yib, "to'liq qurollangan holda" yoniga qilich, xanjar, kamon o'qlari – umuman tirikligida ishlatgan jang qurolari qo'yilib, olov bilan poklab (yoqib) marhumga ulug' hurmat ko'rsatilib dafn etilgan. Tadqiqotchi F.E. Toshboyevning yozishicha, ushbu mozorqo'rg'onlardagi qaysi qabrda buyumlar va harbiy qurollar jasad yoniga ko'p qo'yilgan bo'lsa, u shunchalik kuchli yondirilgan. G'ulbo 1-mozorqo'rg'onidagi marhum yonida jang qurollari yo'q. Shunga bog'liq holdadir, qabrda ham jasad ham olov izlari yo'q. Demak, qadim ustrushonaliklar dafn udumlarida har kimni ham olov yordamida poklab dafn etish odati bo'lmagan. Demak, bu odat ko'proq tirikligida qahramonliklar ko'rsatgan jamiyatdagi ijtimoiy mavqei baland, jumladan qabila boshlig'i, harbiy sarkarda – jangchilar (va boshqa ulug' kishilar)ga qo'llangan. A.N. Bernshtam Kenko'l qabrlarida qo'rg'onning kirish yo'lagida bosh suyaklari evropoid irqiga mansubi ikkita jasad dafn etilganligi, lahad ichida esa ikkita mongoloid irqiga mansub jasadlarni qayd qilib yo'lakda dafn etilgan jasadlar, xunlar tomonidan itoat ettirilgan evropoid irqiga xos bo'lib, ular ichki kameradagi harbiylarning quli bo'lgan degan xulosani beradi.[5] Yuqoridagi misollar ko'chmanchilar ijtimoiy tuzumida ijtimoiy tabaqalar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Ustrushona chorvadorlarining o'rganilayotgan davri uchun Yaksart

saklariga xos ijtimoiy tuzum xos bo'lgan. Mavjud manbalarga tayanib, Ustrushona xalqlari jamiyati mil. avv. II asrdan milodning VIII asrigacha ijtimoiy tabaqalar mavjud bo'lgan, harbiy demokratiya shaklida rivojlanganligini, o'rta asr jamiyatini esa davlatchilik ko'rinishiga ega bo'lgan siyosiy tuzilma sifatida e'tirof etish mumkin. Aholi qabila va urug'larga bo'linib, urug'ni boshqarish urug' oqsoqol (yetakchi)lari ixtiyorida bo'lgan va ular yo'lboshchi biyni saylashgan. Qabilani boshqarish ko'pincha bir urug' qo'lida bo'lib u nasldan naslga o'tgan. Bu kabi ijtimoiy munosabatlar o'troq vohadan dasht hududlariga ham ta'sir qilgan yoki aks ta'sir ham sodir bo'lgan. Tarixiy manbalarda yoritilishicha, Choch, Eloq, Ustrushona kabi Qang' konfederativ davlati tasarrufida bo'lgan qadimiy dehqonchilik vohalarida nafaqat, o'troq xo'jalik taraqqiy yetib, shaharsozlik madaniyati yuksalib borgan balki, ikki xil xo'jalik sohiblarining bir-birini to'ldiruvchi madaniyati ham shakllanib, sayqal topib borgan. Antik va ilk o'rta asrlarda kechgan o'troq va ko'chmanchi aholi o'zaro ta'siri natijasida O'rta Sirdaryo bo'yi mintaqasida o'ziga xos madaniyat vujudga keladi. Bu madaniyat shakllanishi va o'ziga xos jihatlarini L.M.Levina geografik jihatdan uch qismga ajratgan. Ular "Jeti-Osor", "O'tror-Qoratog'" va "Qovunchi" madaniyatlari hisoblanadi. Muallifning ta'kidlashicha, ushbu uchta madaniyatda qayd etilgan moddiy va ma'naviy madaniyat manbalari umumiy xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qilmaydi. Buning asosiy sababi Sirdaryo bo'yi hududlarini tabiiy-geografik xususiyatlaridagi o'xshashlik, xo'jalik hayot tarzining bir-biriga uyg'unligidir.[6]

Ustrushonada eramizning IV-V asrlarda mustaqil boshqaruv tizimi qaror topa boradi. Ilk o'rta asrlarga oid manbalarda O'rta Osiyoning So'g'd, Choch, Farg'ona kabi dehqonchilik mulklari qatorida Ustrushona haqida ham eslatiladi. Ilk o'rta asrlarda ya'ni, milodiy IV-VI asrlar O'rta Osiyo tarixida Movarounnahrning ichki viloyatlariga xiyoniy, kidariy, eftaliy va turk kabi ko'chmanchi qabilalarning kirib kelishi hamda yangi siyosiy uyushmalarning yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Bu davrda O'rta Osiyoga kelib joylashgan qabilalar Amudaryo va Sirdaryo hududlarida hayot kechirib kelayotgan chorvador xalqlarga madaniy va til jihatidan

ancha yaqin elatlar edilar. IV asr o'rtalarida o'lkamizga shimoldan ko'chmanchi xioniylarning hujumi boshlanadi. Ma'lumotlar yetarli bo'lmasada, mutaxassislar xioniylar kidariylar bilan ittifoqda bo'lganligini taxmin qiladilar. Bunda ular shu davrda Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi yerlar xioniylar ta'siri ostida bo'lganligi hamda ba'zi manbalarda xioniylar kidariylar bilan yonma-yon tilga olinishiga asoslanadilar. Ustrushonashunos olim M.H. Pardayevni ta'kidlashicha, "IV asrning o'rtalarida Sug'dni istilo qilishni boshlagan xioniylar dastlab O'rta Sirdaryoning chap qirg'oq havzasida joylashgan Ustrushona yerlarini istilo qilishgan va o'z hukmronliklarni o'rnatishgan. Hozirgi Jizzax vohasi xioniylar tomonidan istilo qilingan dastlabki madaniy vohalar sirasiga kiradi. Eng asosiysi bu davrda nafaqat, Ustrushonada balki, butun O'rta Osiyo ikki daryo oralig'ida xioniyarlarga munosib qarshilik ko'rsatadigan harbiy kuch yo'q edi. Ikkinchidan milodiy IV asr oxiri va asosan V asrdan boshlab Jizzax vohasida qishloq makonlari qurilishi ko'lami keskin oshadi. Ko'p sonli chorvador qabilalar jamiyatida sodir bo'lgan ijtimoiy tabaqalashua sabab, ularning aksariyati, ommaviy ravishda o'troqlashadi. Bu esa sun'iy demografik to'lqin yuzaga kelishiga sabab bo'lardi va aholini qishloq turar joylari bilan ta'minlash vazifasini dolzarbligini ta'minlaydi. Sangzorning quyi oqimida joylashgan xususan, Qaliyatepa atrofidagi 30 ga yaqin qishloq makonlarining aksariyati (Pardaqultepa, Rasulboyqultepa va b...) IV asr oxiri va asosan V asrda bunyod etilgan. Nihoyat, uchinchidan, qishloq makonlari va hatto Qaliyatepa shahrining IV -V asrlarga oid madaniy qatlamlaridan olingan arxeologik materiallarda o'z xususiyatiga ko'ra cho'l-dasht chorvador aholi madaniyatining ta'siri sezilib turadi".[7] V asrning 50- yillarida O'rta Osiyoda esa eftalitlar hukmronligi o'rnatiladi. Ilk o'rta asrlar davrida Markaziy Osiyo mintaqasida kechgan murakkab jarayonlarda boshqa etnik guruhlar qatori faol ishtirok etgan turkiylar va sug'diylar o'rtasidagi munosabatlar bu davrdagi davlatchilikning holati va evolyusiyasini xolis, ilmiy asoslangan, manbalarga suyangan holda to'laqonli yoritishning dolzarbligini tasdiqlaydi. Ilk o'rta asrlar davrida yangi ko'chmanchi guruhlarining kirib kelishi davom etib, vohaning shimoli-sharqiy qismidagi yaylovlar

ham egallab boriladi. Aynan shu davrda Sangzor va Zominsuv daryolarining yuqori oqimlarida yangi qishloq manzilgohlari paydo bo‘ladi va ularning soni oshib boradi. Tog‘-kon sanoatining shakllanishi esa bu qishloqlarni ushbu tegralarning markazi sifatida kengayib borishiga va ko‘chmanchilarning o‘troqlashuviga turtki bo‘ladi. Bu kabi ijtimoiy munosabatlar faollashganligini nafaqat, Ustrushonada o‘rganilgan mozorqo‘rg‘onlar ashyolari balki, Qal‘ai-Qahkaxa, Qaliyatepa, Xovos, O‘rdatepa, Oydinsoytepa, Qo‘rg‘ontepa va boshqalarda o‘rganilgan markazlashgan mustahkam harbiy mudofaa tizimlari, muhtasham ma‘muriy inshootlar qoldiqlari va boshqa ko‘plab topilmalar ham tasdiqlaydi. Arxeolog M.H. Pardayevning yozishicha, ko‘chmanchi cho‘l madaniyatini Jizzax vohasiga, jumladan Ustrushonaga keng tarqalishini ta‘sirini, umumiy aloqa me‘zonlarini, moddiy-madaniy almashuvlarni davriy jihatdan ikki bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich mil. eraning IV-VI asrlari bilan belgilansada, uning negizida ancha qadimgi, o‘ziga xos mahalliy madaniyat asoslari yotadi. IV-VI asrlardagi turli harakat va ko‘chishlarida ishtirok etishgan. Bu jarayonlarning barchasi Sangzor vodiysida o‘troq dexqonlar va ko‘chmanchi chorvadorlarning chambarchas bog‘likligi asosida muayyan, o‘ziga xos madaniyat namunasi vujudga kelgandan shahodat beradi.[8] Bu paytda kulollik idishlaridagi shakl o‘zgarishlarini sopol yog‘log‘i(krujka), suvdon (mustaxara) va tova-manqaldonlarda ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, topinch buyumlari hisoblangan burama shoxli qo‘chqor haykalchalari, ularga taqlid qilib ishlangan sxematik tarzda qo‘chqor boshlari ham paydo bo‘ladi. O‘troq hunarmandlar ishlab chiqargan yangi turdagi idishlarni, xususan yog‘log‘ilarni prototipi bo‘lib, ko‘chmanchilarning yog‘och yoki kumushdan yasalgan krujkalari, suvdon-mustaxaralarining prototipi bo‘lib, teridan tikilgan meshqoplar xizmat qilgan. Xuddi mana shu xildagi topilmalar Qaliyatepa shahar xarobalari qatlamlarida, Pardaqultepa kulollik idishlari kompleksida ko‘plab uchraydi.[9] Bu jarayonlar, ayniqsa eftaliylar davrida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu davrda vohada imoratlar qurilishi kuchayadi. Aynan, V-VI asrlarga oid yodgorliklar moddiy –madaniyati mahalliy kulollarning mahsulotlari, kulollik charxida yasalgan tor bo‘g‘izli, bir dastali, usti qizil angob

bilan bo‘yalgan obdastalar, tanasi dumaloq, gardish tuzilishi turlicha, yon devori yupqa, sarpush bilan yopiladigan qozonlar, katta hajmli suv ko‘zalar yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu davrda, albatta, ko‘chmanchilarning katta qismi shimoli-g‘arbiy Ustrushonaning cho‘l bilan tutash sarhadlarda o‘z an’anaviy hayot tarzlarini ko‘chmanchilik bilan hayot kechirishgan. Ular uchun Sangzor vodiysi O‘rta Osiyoning qadimgi davlatlari xususan, Sug‘d bilan bo‘ladigan moddiy-madaniy aloqalarni amalga oshiruvchi “retranslyator voha” bo‘lib xizmat qilgan. M.H. Pardayevni yozishicha, Shimoliy-g‘arbiy Ustrushona vohalarida ko‘chmanchi aholining yoyilishi ikkinchi bosqichi Turk hoqonligi davri bilan bog‘liqdir. Turk hukmronligi butunlay o‘rnatilgan dastlabki paytlarda O‘rta Osiyo davlatlarini siyosiy jihatdan mustaqilligi qisman saqlanib qolgan bo‘lsada, ular hoqonlikka o‘lpon to‘lovchi vassallarga aylanib qoldilar. Chorvador turkiylarning ayrim guruhlari o‘troqlashishda davom etishadi, aholining asosan boy va o‘ziga to‘q qatlamlari ko‘chmanchilik hayot tarzini davom ettirishdi. Mazkur tarixiy jarayonlar ko‘chmanchilar bilan eng yaqin “kontakt” mavzedagi ilk o‘rta asr Ustrushonasiga, xususan uning shimoli-g‘arbiy viloyatlariga o‘ziga xos holatda ta’sir ko‘rsatadi.[10] Yangi eraning VII asridan boshlab kulollik madaniyatida ko‘chmanchilar nufuzining oshib borishi kuzatiladi. Idishlarda hayvon tasviri, o‘yma naqsh, ko‘rsatgich chiziqsimon bezaklar paydo bo‘ladi. Shuningdek, turkiylarning metall, ayniqsa, zargarlik buyumlari, qurol-aslaxa va bezakli taqinchoqlari yuqori sifatli san’at asari sifatida qadrlanib, tezda O‘rta Osiyoning o‘troq aholisi hayot tarziga kirib boradi. Ustrushona qabr inshootlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida, qadimgi aholining dafn etish bilan bog‘liq ko‘plab ashyoviy manbalar qo‘lga kiritilgan. Mozorqo‘rg‘onlarda o‘rganilgan kulollik idishlari, qurol-yarog‘, zeb-ziynat va boshqa ro‘zg‘or buyumlari chorvadorlarning xunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish borasida yuksak madaniyat sohiblari bo‘lganligidan guvohlik beradi. Ustrushonada yashagan va kelib joylashgan aholi bu o‘lkaga kelguncha ham xunarmandchilikning ko‘plab sohalarini mukammal egallaganligi ko‘rinadi. Afsuski, o‘rganilgan mozorqo‘rg‘onlarda metall va sopollardan boshqa

olovga chidamsiz buyumlar (to‘qimachilik, suyak, yog‘och buyumlar, kamonlarning yoyi, qovurg‘asi va h...) deyarli saqlanib qolmagan. Unga sabab uzoq vaqt mobaynidagi chirish va eng asosiysi marhumlarning dafn marosimida yoqib yuborilganligidadir.[11] Shunday bo‘lsada, mavjud yozma va etnografik ma’lumotlar asosida chorvadorlarning to‘qimachilik mahsulotlari haqida fikr yuritish mumkin. Ustrushonada o‘rganilgan yodgorliklar atroflarida yashash, uy qoldig‘i izlarining yo‘qligi, ularning ham boshqa ko‘chmanchi chorvadorlar kabi asosan o‘tovlarda yashaganligini ko‘rsatadi. Chorvadorlarning butun kiyim bosh va to‘qima ro‘zg‘or buyumlari chorva mollarining yung va terilaridan tayyorlangan.[12] Qang‘ davri bilimdoni K.SH. Shoniyozovning yozishicha, “Qang‘arlar davrida charmdan ishlangan buyumlar ham keng tarqalgan. ... Charm mahsulotlaridan qilingan buyumlar hamda kiyimlarni ko‘chmanchi va yarim o‘troq yashab, chorva bilan shug‘ullanib kelgan qang‘arlar ishlatganlar. Charmdan o‘qdonni solib yuradigan charm xaltalar pichoq qinlari, sanoch, mesh va boshqa buyumlar tayyorlangan”.[13] Keyinchalik ham bu an‘ana davom etib, Choch va Ustrushona o‘zining charm mahsulotlari bilan mashhur bo‘lgan. Yaqin vaqtlargacha charmdan oyoq buyami (choriq) – poshnasiz etik, otda yurishga mo‘ljallangan baland poshnali etik, po‘stin va tumoqlar yasab kiyishgan. To‘shama buyumlar, g‘ilof, mesh va boshqa zaruriy ro‘zg‘or buyumlari tayyorlangan. Ayni paytda ham Ustrushona chorvador aholisi orasida charmdan ko‘plab buyumlar tayyorlash amaliyoti saqlanib qolgan. Echki va tuyaning juni hamda, ot dumi va yollaridan eng pishiq arqonlar to‘qilgan. Ustrushona mozorqo‘rg‘onlarida qayd etilgan temirdan yasalgan o‘tkir tig‘li qurollar Ustrushonada xunarmandchilikning metallsozlik sohasi ham yuksak darajada taraqqiy etganligini ko‘rsatadi. 1984 yili Sirdaryodan topilgan, bundan 2000 yil oldin yasalgan dubulg‘aning zirhi qo‘shqavat bo‘lib, turli metall qotishmalaridan iborat bo‘lgan. Mutaxassislar uni yasash uchun maxalliy xom ashyo, jumladan, Qoramozor rudasi asosiy material bo‘lib xizmat qilgan deb taxmin qiladilar. Yodgorliklarda qayd etilgan arxeologik materiallar Ustrushona mozorqo‘rg‘onlaridagi ashyolar orqali yana bir bor o‘z tasdig‘ini topmoqda.[14]

Ustrushonadagi antik va ilk o'rta asrlariga oid ko'plab manzilgohlar qishlov ovullari, hunarmandchilik rivojlangan yirik markaz(poselenie)lar va qishloq makonlari ekanligi ma'lum bo'ldi. Atrofi sahrolardan iborat bo'lgan bu aholi manzilgohlari har ikkala xo'jalik a'zolarining o'zaro integratsiyasi tufayli gullab yashnagan. Ba'zan siyosiy hokimiyatning yemirilishi va o'zaro munosabatlarga zil ketishi bilan, odam resurslarining atrofda yo'qligi sababli, bu manzilgohlar ham inqirozga yuz tutgan. Bu holat ko'chmanchilar dashti bilan chegara hududlarda joylashgan vohalarda ayniqsa ko'p seziladi. Shunday qilib, O'rta Osiyoning boshqa tarixiy madaniy vohalari kabi Ustrushonada ham iqtisodiyotning uzluksiz rivoj topishi faqat o'ziga xos mehnat taqsimoti va ikki xil xo'jalik yurituvchi aholi vakillari faoliyatining integratsiyalashuvi bilan belgilanadi. Bu holat etnik jarayonlarning faol kechishiga ham sabab bo'lgan. O'rganilgan manbalarga tayanib aytish mumkinki, ikkala xo'jalik vakillarining faoliyati tufayli, Ustrushonadagi tog', tog'oldi, dasht va cho'l hududlari hech qachon bo'shab qolmagan. Suv manbalari va dehqonchilik bilan shug'ullanishga imkoniyat mavjud bo'lgan joylarda o'troq dehqonchilikning yuqori mavqega ega bo'lishini ta'minlagan. Bu aholi xo'jaligida davrlar o'tishi bilan o'troq dehqonchilik ustun mavqeni egallagan va ikkala xo'jalik vakillarining o'zaro munosabatlari etnik va ijtimoiy siyosiy jarayonlar rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Xullas, ikki xil xo'jalik vakillarining faol madaniy aloqalari kuzatilib, bu jarayon, ayniqsa, antik davrda ko'chmanchi chorvador qabilalarning dehqonchilik vohalari tomon yoppasiga kirib kelishi natijasida yana ham kuchayadi. Natijada, Ustrushonada ham siyosiy boshqaruv tartiblar yo'lga qo'yilgan. Mahalliy madaniyat namunalaridagi sifat o'zgarishlariga katta ta'sir o'tkazgan. Ayni paytda, dashtdan kirib kelgan aholining sekin-asta o'troqlashib, mahalliy aholi bilan qorishib borishi, vohada etnik va ijtimoiy siyosiy hayotning yanada jonlanishiga sabab bo'lgan. Bu jarayonlar bilan bog'liq ma'lumotlar qabrlar materiallarida yorqin namoyon bo'ladi. Shunday qilib, Qadimgi Ustrushonaning antik va ilko'rta asrlar davrida o'troq hayotning madaniy an'analari dasht udumlari bilan omuxtalashib, bu davr butun O'rta Osiyoga

xususiyatli bo'lgan o'ziga xos madaniyati shakllana boshlagan. Bu jarayonlar, ayniqsa ilk o'rta asrlarda davrida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur tarixiy jarayonlar antik va ilk o'rta asr Ustrushonasiga, xususan uning shimoli-g'arbiy viloyatlariga o'ziga xos holatda ta'sir ko'rsatgan. Faol ijtimoiy siyosiy munosabatlar tufayli antik va ilk o'rta asrlarda ayniqsa uning oxirlarida Ustrushonada aniq hududiy chegaralanish yuz beradi. Mamlakatning ma'muriy va madaniy markazi-Bunjikat poytaxt sifatida ajralib chiqadi. Cho'l mavzolari bilan chegaradosh joylarda yangi shahar va ko'plab qishloqlarga o'xshash turar-joy makonlari vujudga keladi. Mahalliy va yangi o'troqlashgan aholi hayot tarzida dehqonchilik, hunarmandchilik, cho'l halqlari bilan o'zaro aloqa, Buyuk ipak yo'li savdosidan bahramandlik xususiyatlari alohida o'rin tutdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Пардаев М.Х. К вопросу об эволюции планировки замков- рабатов в Северо-Западной Уструшане // Тез, докл.науч.конф. посвящ.80-летию акад. Я.Г.Гулямова,-Т.: 1988. -С.72.

2.Пардаев М.Х., Тошбоев Ф.Э. Уструшонанинг қадимги давр давлатчилиқ тарихи. Ўқув қўлланма, VNESHINVESTPROM Тошкент, 2020. Б.63.

3. Гайдукевич В.Ф. Могильник близ Ширинсая в Узбекистане // СА. – 1952. – № 26. – С. 335-352;Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Уструшаны с древних времен по X веков н.э. // МИА, № 37. – Москва, 1953; Агзамхожаев Т. Погребальные сооружения Чирчик-Ангренской долины I-VIII вв. н. э. Автореф. канд. дисс. – Ташкент. 1966; Салтовская Е.Д. О раскопках могильника Дашти-Ашт в 1976 // АРТ. – Душанбе, – Вып. XVI. 1976. – С.253-255; Gorbunova N.G. The culture of ancient Ferghana VI century B.C. – VI century A.D. – Oxford, 1986. – 365 p.

4.Тошбоев Ф.Э. Икки хил хўжалиқ ягона иқтисодий тизим // Ўзбекистон археологиясию №1. Тошкент, “Фан”, 2010. Б. 173.

5. Бернштам. А.Н. Кенкольский могильник. Археологические экспедиции Государственного Эрмитажа. Вып. II. Л., 1940. С. 29.

6. Пардаев М.Х., Ғофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент, 2016. Б.285-288
7. Пардаев М.Х., Ғофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент, 2016. Б.285-288
8. Пардаев. М.Х. Қадимий Жиззах воҳасида ўтроқ дехқонлар ва кўчманчи чорвадорлар маданияти // ЎММТ. № 33. Самарқанд, 2003. Б. 148. .
9. Пардаев М.Х., Ғофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари. “ILMIY TEXNIKA AXBOROTI – PRESS NASHRIYOTI”, Тошкент, 2016. Б. 270-273.
10. Пардаев М.Х., Ғофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари.... 275-276.
11. Тошбоев Ф.Э. Олов билан боғлиқ удумлар ҳақида баъзи мулоҳазалар // СамДУ илмий тадқиқотлар ахборотномаси №4 (62) Самарқанд, 2010. Б. 25-26, Тошбоев Ф.Э., Тугалов Б. Б. Qadimgi Ustrushona aholisining marhumni poklash bilan bog‘liq dafn marosimlari // O‘Z MU XABARLARI № 1/3. Toshkent, 2022. Б.36
12. Тошбоев Ф.Э., Тошбоев Ж.Э. ва б... Уструшона чорвадорларининг амалий санъати ҳақида // “Уструшона Буюк ипак йўлида...”, Гулистон, 2016. Б. 142.
13. Шониёзов К.Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар... – Б. 110.
14. Тошбоев Ф.Э. Уструшона халқларининг ҳарбий қуроллари ҳақида дастлабки мулоҳазалар // Ўзбекистон археологияси. № 7 Самарқанд, 2013. 66-73.